

ALFONS DODENING “SO'NGGI SABOQ” HIKOYASIDA ILGARI SURILGAN G'OYA VA QARASHLAR

Tursunova Shaxzoda Toir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6997644>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alfons Dodening „So'nggi saboq” hikoyasi haqida so'z yuritiladi. Asar muhiti, unda ilgari surilgan g'oya va qarashlarning bugungi kundagi ahamiyati yoritib beriladi. Hikoya qahramonlarining ijobiy va salbiy xususiyatlari va bugungi avlodga namuna bo'ladigan jihatlarga alohida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, muhit, yoshlik, ilm, halollik, insoniylik, mas'uliyat, burch, qadriyat, maktab, tarbiya, ma'rifat, erk.

ИДЕИ И ВЗГЛЯДЫ, ПРЕДСТАВЛЕННЫЕ В РАССКАЗЕ АЛЬФОНСА ДОДЕ «ПОСЛЕДНИЙ УРОК»

Аннотация. В данной статье рассказывается о рассказе «Последний урок» Альфонса Доде. Будет освещен контекст работы, важность идей и взглядов, изложенных в ней сегодня. Будут выделены положительные и отрицательные характеристики героев рассказа и аспекты, которые будут примером для сегодняшнего поколения.

Ключевые слова: патриотизм, окружающая среда, молодежь, наука, честность, человечность, ответственность, долг, ценность, школа, воспитание, просвещение, свобода.

IDEAS AND VIEWS PROVIDED IN THE STORY "THE LAST LESSON" BY ALFONS DODE

Abstract. This article talks about the story "The Last Lesson" by Alphonse Dode. The context of the work, the importance of the ideas and views presented in it today will be highlighted. The positive and negative characteristics of the heroes of the story and the aspects that will be an example for today's generation will be highlighted.

Keywords: patriotism, environment, youth, science, honesty, humanity, responsibility, duty, value, school, education, enlightenment, freedom.

KIRISH

Mashhur fransuz yozuvchisi Alfons Dode 1840-yilning 30-mayida tug'iladi. Yoshligida maktab muallimi sifatida faoliyat olib boradi. O'n yetti yoshga to'lgandan so'ng akasi bilan jurnalistik faoliyat bilan shug'ullanish maqsadida Parijga boradi. Bir qancha jurnallar va teatrlar bilan hamkorlikda ishlaydi. Uning ilk kitobi „Tegirmonimdan xatlar" deb nomlanadi. Asarning bunday nomlanishi, bevosita „adibning tanqidchi sifatida olib borgan faoliyati bilan bog'liq. Keyinchalik uning „Kichikintoy", „Tarasonlik Tartaranning sarguzashtlari", „Roza va Ninetta", „Kichik Fromon va katta Risler" ¹ kabi asarlari dunyo yuzini ko'radi. Alfons Dodening mashhur hikoyalaridan biri „So'nggi saboq" hikoyasidir. Asar kichik yoshli bolaning tilidan hikoya qilinadi va uning hayotida bo'lib o'tgan voqaealarni o'z ichiga oladi. Hikoyadagi ko'p voqealar badiiy to'qima emas, real voqaealar asosida yozilgan. Jumladan, o'sha davrdagi mamlakatda hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat bunga misol bo'la oladi. Asar kichik hajmli bo'lishiga qaramay, undagi voqaealari keng qamrovli va tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

So'nggi saboq" hikoyasi tarbiyaviy jihatdan nihoyatda katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda ozodlik va hurlikning qadriga yetmasdan maktabdagi darslarga o'z vaqtida qatnashmay yoki a'lo baholarda o'qimay kelayotgan bolalarga namuna qilib ko'rsatishga arzigulik asar. Asarda Frans ismli bola misolida ilmsizlik, e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik xususiyatlari va bu illatlarga ega bo'lishning ayanchli oqibatlari yoritib beriladi. Bosh qahramon Frans o'z ona tilida olib boriladigan fransuz tili darsiga har doim e'tiborsiz qaraydi va turli xil o'yinlarga shoshilib dars qilishni, ona tilini mukammal o'rganishni yodidan chiqaradi. Oxir-oqibat mustamlakachilar bu fanning dars sifatida o'tilishini taqiqlab qo'yishadi. O'z ona tilini bilmaydigan bola esa o'zining mas'uliyatsizligidan pushaymon bo'ladi. Fransuz tili o'qituvchisi mosye Amel esa haqiqiy millatparvar timsolidagi shaxs sifatida tasvirlanadi asarda.

TADQIQOT NATIJALARI

Alfons Dodening "So'nggi saboq" hikoyasini tushunib yetish uchun Fransiyaning XIX asrdagi holatini, tarixini yaxshi bilish lozim. Bu davrda Fransiya ma'lum vaqt mustamlakalik davrini boshdan kechiradi. Davlatning Elzas va Lotaringiya shaharlari nemislar qo'l ostiga o'tadi. Shu sababdan ham hikoyada bunga bir qancha ishoralar bor. Bosh qahramon Frans yashaydigan Elzas shahri maktablarida ham darslar fransuz tilida olib borilishi taqiqlanadi. Asar voqealari maktab o'quvchisi bo'lgan Frans ismli bola tilidan hikoya qilib boriladi. Voqealar rivoji uning maktabga kech qolayotgani va o'tilgan mavzularni o'zlashtirmaganligidan boshlanadi. Frans o'yinqaroqlik qilib darsga borishni xohlamaydi, aksincha tabiat qo'ynida sayr qilish, nemislarning safda yurish mashqalari uni o'ziga jalb qiladi. Maktabga o'zi istar-istamas borgan Frans katta va butun umri davomida unutilmas bo'lib qoladigan voqeaning guvohi bo'ladi. O'qituvchi Mosye Amel Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqatgina nemis tilida darslar o'tilishi to'g'risida xabar kelganligi va bugun so'nggi dars o'tilayitganligini aytadi. Frans esa o'z ona tili, fransuz tilini hali hanuzgacha yaxshi o'zlashtirmagan va unda to'liq yozish, o'qishni o'rganmagan edi. Shu payt u e'tiborsizlik va mas'uliyatsizliklarining oqibatini o'ylaydi va qilgan xatolarining barchasini tushunib yetadi. Endi esa kech bo'lgan edi. Hikoyada faqatgina bir bolaning e'tiborsizligi emas, balki uning bunday holatga tushishiga sababchilardan biri bo'lgan ota-onasi, tanish-bilishlari ham aybdor deb qaraladi. Xususan Mosye Amelning nutqida, ... Biz o'zimizdan o'pkalashimiz kerak. Ota-onalarimiz o'qoshlarimiz haqida ko'p ham qayg'urishmaydi. Maktabga jo'natish o'rniga qo'shimcha aqchaga ega bo'lish maqsadida sizlarni dalaga yoki fabrikaga ishlash uchun yuborishadi. Men o'zim-chi? Men emasmi sizlarga bilim berish o'rniga bog'dagi gullarni parvarishlashni zimmabgizga yuklagan? Men emasmi baliq ovlagim kelib qolganida sizlarni tap tortmay darsdan ozod qilgan?"², kabi so'zlar uchraydi. O'qituvchi ota-onalarning farzandlari taqdiriga e'tiborsizligi, bolalarning berilgan vaqtni, yoshlikni qadrlamasdan o'qish o'rniga boshqa yumushlar bilan mashg'ul bo'lishi va o'zining mas'uliyatsizligi uchun o'zini qattiq koyiydi. O'qituvchi bularni aytar ekan bu haqiqiy fojjealardan biri ekanligini aytadi. Haqiqatdan, o'z ona tilini bilmaslik, o'qib-o'rganmaslik va eng muhimi o'rgana olmaslik eng katta fojjealardan biridir. Ona tilini ona allasi bilan har bir insonning qalbiga jo' bo'ladi, tomirlarida kezadi, uning o'z tiliga, hayotiga, umrining ajralmas qismiga aylanadi. Shu sababdan ham ushbu holatni Mosye Amel yorug'likka chiqa olish (mustamlaka zulmidan xalos bo'lish) uchun tilni saqlab qolish kerakligi borasidagi bir qancha misollar bilan o'quvchilarga tushuntiradi, chunki ular—yurtning yoshlari, kelajakka poydevor qo'yuvchilargina buni uddalashlari mumkin. Asarda e'tiborni qaratishga arziydigan yana bir katta jihat bor u ham

bo'lsa so'nggi darsga qariya Xauzer, sobiq mer, pochtachi va boshqa qishloq kishilarining kelganligi, eski Alifbeni tutib o'tirganliklaridir. Ular o'z ona tillarida olib boriladigan so'nggi darsga kelishadi, hech bo'lmasa mana shu saboqdan nimanidir o'rganishga umid bog'lab, chuqur g'amga cho'kishadi. Bu o'z navbatida berilgan umrning, vaqtning, erkning va jamiyati ne'matlarning o'z vaqtida qadriga yetish kerakligini anglatgan hikoyada.

MUHOKAMA

Hikoyani o'qir ekanmiz, bevosita, asar qahramonlari o'rnida o'zimizni ko'rgandek bo'lamiz. Go'yoki ular qilayotgan xatoni biz qachonlardir qilgandek tuyuladi. Hikoyada loqaydlikning ayanchli oqibatlati keng yoritib beriladi. Jamiyatdagi muhitning har bir inson hayotidagi ahamiyati, o'rni, ta'sir qilarli jihatlari haqida so'zlanadi. Alfons Dodingning „So'nggi saboq“ asari faqatgina fransuzlar emas, elzasliklar emas, butun dunyodagi insonlar, millatlar haqida hikoya qiladi. Hikoya milliy tilning qadr-qiyamati yosh-u qari uchun hamisha baravar bo'lib qolaverishini ko'rsatib beradi. Buning isboti sifatida asardagi : „...Orqa o'rindiqdagi qariya Xauzer ham ko'zoynagini taqib, alifboni qo'lida tutganicha bizga jo'r bo'ldi: uning ovozi hayajondan titrab chiqardi; uni eshitib yig'lashni ham, kulishni ham bilmasdik...“³, degan jummalarni ko'rishimiz mumkin. So'nggi bora ona tilida erkin o'tiladigan darsga kelgan qariyaning ovozi keksalikdan emas, erksizlik va loqaydlikning achchiq oqibatlari sabab titraydi. Asarda (faqatgina maktab o'quvchilari emas, keksalarning ham) turli toifadagi insonlar taqdiri aks etadi. Bu esa, o'z navbatida, milliy tilni asrash, avaylash har bir insonning muhim va muqaddas burchlaridan biri ekanligini ko'rsatib beradi.

XULOSA

Alfons Dodingning „So'nggi saboq“ hikoyasida XX asrning bir qancha haqiqatlari keng yoritib beriladi. Jumladan, ilmsizlik, loqaydlik, mas'uliyatsizlik, beparvolik kabilar. Haqiqatlar yuqoridagi xususiyatlarni o'zida jamlagan kishilarning ayanchli taqdiri timsolida badiiy tasvirlab beriladi. Milliy tilning millat taqdiriga qanchalik dahldor ekanligi ta'kidlanadi. Asar bugungi shiddatli zamonada yashayotgan kishilar uchun nihoyatda katta o'rnak bo'ladi. Shu boisdan ham asrlar davomida butun dunyo xalqlari oldida o'z qadr-qiyamatini yo'qotmay, yanada oshirib kelmoqda.

REFERENCES

1. Adabiyot 10-sinf uchun darslik 2-qism(2017)—Toshkent, 171-178-betlar
2. Adabiyot 10-sinf uchun darslik 2-qism(2017)—Toshkent, 173-b
3. Adabiyot 10-sinf uchun darslik 2-qism(2017)—Toshkent, 174-b
4. Tursunova, Sh.(2022). Muhammad Yusuf ijodida xalqona obrazlar tasnifi. Toshkent.
5. Tursunova, Sh.(2022). Abdulla Qahhorning „Bemor“ hikoyasida davr muammolari. Science and innovation.